# XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHI
# Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, tuman kengashlar uyi telefon: (62)385-42-36, (62) 385-53-36

2023 - yil 29 - dekabr VI-102-194-12-179-K/23 Yangiariq tuman hokimligi

**Yangiariq tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ 886-sonli qonuniga muvofiq hamda Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1684-sonli xatini, Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-76-190-12-0-K/23-sonli kengash qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ 886-sonli qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Yangiariq tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 71,58 mlrd. so‘m, xarajatlari 151,62 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 80,04 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Yangiariq tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun Yangiariq tumani byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan Yangiariq tumani mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun Yangiariq tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan Yangiariq tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan

tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman (shahar) mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun Yangiariq tumani byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1 mlrd 345,6 mln. so'm miqdorida belgilansin.

Yangiariq tumani byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan Yangiariq tumani byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag'lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. Yangiariq tumani byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. O'zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Tumani byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlari va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imi, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

d) 4-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat byudjeti hamda Yangiariq tumani byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyatlar va tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

12. Yangiariq tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Saidov), tuman iqtisodiyot va moliya bo`limi (X.Bekchanov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (Z.Kamolov) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Tuman Majburiy ijro byurosi (R.Tillayev) va tuman soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev), bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

20. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Saidov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Yangiariq tumani irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i (A.Allaberganov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) tuman hokimi bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

24. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Bekchanov);

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitilib borilsin.

25. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Saidov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Yangiariq ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining mahalliy byudjetni shakillantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy kamissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi raisi** **K.Atajanov**

Xalq deputatlari Yangiariq tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil uchun Yangiariq tuman rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026 yillarga maqsadli mo‘ljallari**

| № | Ko‘rsatkichlar | 2024 yil uchun prognoz | 2025 yil uchun mo‘ljal | 2026 yil uchun mo‘ljal |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘mda** | **44 805,8** | **51 905,6** | **60 205,6** |
| 2. | Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda | 105,2 | 105,3 | 105,4 |
| 3. | Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda | x | x | x |
| 4. | Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda | 106,9 | 107,2 | 107,5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda | 103,7 | 103,8 | 104,0 |
| 6. | Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda | 105,8 | 106,2 | 106,5 |

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
2-ilova

## Yangiariq tumanining mahalliy budjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

| T/r | daromad turlari | jami |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **71 577 000,0** |
| 1 | foyda solig‘i | |
| 2 | aylanmadan olinadigan soliq | 4 776 000 |
| 3 | jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i | 26 320 000 |
| 4 | yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i | 0 |
| 5 | yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | 11 186 000 |
| 6 | yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 2 464 000 |
| 7 | jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 7 259 000 |
| 8 | yuridik shaxslar yer solig‘i | 6 004 000 |
| 9 | jismoniy shaxslar yer solig‘i | 8 565 000 |
| 10 | Qurilish materiallari buyicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 16 000 |
| 11 | suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 4 869 000 |
| 12 | davlat ulushi buyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | |
| 13 | davlat boji | |
| 14 | yig‘imlar | |
| 15 | jarimalar | |
| 16 | davlat mulki buyicha ijara tulovlari | 118 000 |
| 17 | davlat mulki obektlarini sotishdan tushumlar | |
| **jami** | | **71 577 000** |
| | **Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar** | **80 038 703** |
| | *Shu jumladan* | |
| | mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, s’hu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tus’humlaridan tegis’hli ravis’hda o‘tkazib beriladigan daromadlar | **20 844 038** |
| 1 | alkogolga aksiz solig‘i (s’hu jumladan pivo) | 9 035 211 |
| 2 | mobil aloqaga aksiz solig‘i | 3 639 402 |
| 3 | tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i | 8 169 425 |

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
3-ilova

**2024 yil uchun yangiariq tuman budjetidan xududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori**

ming so'm

| t/r | ko‘rsatgichlar | summa |
|---|---|---|
| | **xarajatlar - jami** | **151 615 703** |
| **1.** | **ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami** | **94 595 798** |
| | *shu jumladan:* | |
| 1.1 | maorif | 21 963 016 |
| | - maktabgacha ta’lim | 10412190,0 |
| | - umumiy ta’lim | 11550826,0 |
| | - kadrlar tayyorlash | |
| 1.2 | sog‘liqni saqlash | 67979355,0 |
| | *shundan: davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga transfertlar* | |
| 1.3 | madaniyat | 2054471,0 |
| 1.4 | sport | 2479158,0 |
| 1.5 | fan | |
| 1.6 | bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar | |
| 1.6 | Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash | |
| 1.7 | davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar | |
| 1.9 | Qoraqalpog‘iston respublikasi va xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi fuqarolarga moddiy yordam | |
| 1.8 | ozodlikdan mahrum etish jazosini utab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi” | 18400,0 |

| | | |
|---|---|---|
| 1.9 | toshkent metropolitenida aholiga cheklangan tariflarda xizmat ko‘rsatish natijasida ko‘riladigan zararni qoplash | |
| 1.12 | shahar passajir transportida ba’zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini budjetdan qoplash | |
| 1.10 | jamoat transportining brutto shartnomasi asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun subsidiyalar | |
| 1.11 | fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash | |
| 1.12 | ijtimoiy ko‘nikma markazlari | 101398,0 |
| **2.** | **iqtisodiyotga xarajatlar** | **18 090 091,0** |
| | *Shu jumladan:* | |
| 2.1 | ichki xo‘jalik avtomobil yullarni ta’mirlash xarajatlari | 4000000,0 |
| 2.2 | o‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari | |
| 2.3 | obodonlashtirish | 9199085,0 |
| 2.4 | ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari (reja 111 mlrd bu‘lishi kerak sirdaryo 7 mlrd so‘m) | |
| 2.4 | issiqlik ta’minoti tizimi tas’hkilotlari xarajatlari | |
| 2.5 | ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini t’mirlash va yangilash | |
| 2.6 | "toza hudud" davlat unitar korxonasi | |
| 2.7 | xo‘jayli va chalish suv yo‘li texnik uchastkasi | |
| 2.8 | issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar | |
| 2.9 | suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari | 1147811,0 |
| 2.10 | urmon xujaligi tashkilotlari | |
| 2.17 | veterinariya qo‘mitasi | 2171333,0 |
| 2.18 | sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash | |
| 2.20 | **boshqa** | |
| 2.19 | avtobus yunalishlarini subsidiyalash | |
| 2.20 | "mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari | 1327800,0 |
| **3.** | **markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar** | |
| 3.1 | markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalas’htiris’hga xarajatlar (boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar) | |

| | | |
|---|---|---|
| 3.2 | oliy ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash | |
| 3.2 | maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash | |
| 3.3 | umum ta’lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash | |
| 3.4 | sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash | |
| 3.6 | sport muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash | |
| **5.** | **davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **21 871 210** |
| **6.** | **nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini saqlash** | |
| **7.** | **fuqarolarning uzini uzi boshqarish organlarini saqlash** | **0** |
| **7.** | **zahira jamg‘armasi** | **1 345 571** |
| **8.** | **fuqarolar tas’habbusi jamg‘armasi** | **15 713 033** |
| 9.1 | *"obod qishloq" va "obod mahalla" dasturi* | *0* |
| 8.1 | *tas’habbusli budjet tadbirlari* | *15 713 033* |
| **9.** | **boshqa xarajatlar** | **0** |
| | *shu jumladan:* | |
| 9.1 | Qabul uylari | |
| 9.2 | ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari | |
| 9.3 | advokatlik xizmatlari xarajatlari | |
| 10.4 | issiq suv va sovuq suv xarajatlarini indeksatsiyalash | |
| 9.5 | mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar | |

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
4-ilova

**Umumdavlat soliqlaridan Yangiariq tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori**

***Foiz hisobida***

| T/R | Shahar va tumanlar nomi | Aylanmadan olinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno* | Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yangiariq tumani | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
5-ilova

**Mahalliy budjetning 2024-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi**

ming so‘mda

| **Hudud nomi** | **daromad*** | **xarajat** |
|---|---|---|
| Yangiariq tumani | 71 577 000,0 | 151 615 703,0 |

*tamaki, alkogol mahsulotlari, s’hu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tas’hqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni hisobga olmagan holda

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
6-ilova

**Yangiariq tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

***ming so‘mda***

| **T/r** | **Shahar va tuman** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** | ***shundan, aksiz solig‘i tushumlari xisobidan ajratilgan mablaglar**** |
|---|---|---|---|
| 1 | Yangiariq tumani | 80 038 703,0 | 20 844 038,0 |

*tamaki, alkogol maxsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan maxsulotlardan tashqari) xamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari xisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-102-194-12-179-K/23-son
qaroriga
7-ilova

**Yangiariq tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

**ming so‘mda**

| **T/r** | **Shahar va tumanlar** | **Miqdor** |
|---|---|---|
| 1 | Yangiariq tumani | 766 000,0 |